

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MIRZAYEVA DILZODAXON FAYZULLAYEVNA**

**GRAFIK ASIMMETRIYANING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI  
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALI ASOSIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Mirzayeva Dilzodaxon Fayzullayevna**

Grafik asimmetriyaning qiyosiy-tipologik tahlili (ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida) ..... 3

**Мирзаевой Дильзоды Файзуллаевны**

Сравнительно-типологический анализ графической асимметрии (на материале английского и узбекского языков) ..... 21

**Mirzaeva Dilzodaxon Fayzullaevna**

Comparative-typological analysis of graphic asymmetry (based on the English and Uzbek languages) ..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MIRZAYEVA DILZODAXON FAYZULLAYEVNA**

**GRAFIK ASIMMETRIYANING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI  
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALI ASOSIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil5081 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Raximov G'anisher Xudoyqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mamatov Abdug'afur Eshonqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Qosimova Nafisa Farhodovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "4" yanvar soat 13<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, bosh o'quv binosi, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (146 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: 239-11-40; 239-18-92 faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "23" dekabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil "23" dekabr dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi).



**J.D.Eltazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**Sh.S.Mahmadiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari dotsenti, dotsent

**X.Z.Xayrullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida Grafik asimmetriyani qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, bizningcha, dolzarb vazifalardan sanaladi. Chunki ushbu tadqiqot ishi uchun tanlangan mavzu doirasida turli tizimli tillarga mansub ikki til, jumladan, o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida yetarli darajada o'rganilmagan. Holbuki, O'zbekistonda bunday tadqiqotlarga ehtiyoj juda kuchli, chunki globallashuv jarayonida davlatimiz fuqarolarga ingliz tilini o'qitish va turli sohalar bo'yicha yuqori malakali tarjimonlar tayyorlash ishiga alohida e'tibor qaratmoqda.

Dunyo lingvistik tadqiqotlari orasida asimmetriya hodisasiga bag'ishlanganlari anchayin salmoqli. Bunday ishlar til hodisalarida uchraydigan asimmetrik qonuniyatlarni aniqlash, ularning xususiyatlarini ochib berish hamda o'ziga xos tipologiyasini yaratishda muhim sanaladi. Shu asnoda jahon va o'zbek tilshunosligida ushbu hodisaning kechish jarayonini aniqlash hamda tizimlashtirish, ularni qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tadqiq etish zarurati mavjudligi sabab ikki tilga oid materiallar asosida grafik asimmetriya hodisalarini tahlilga tortish maqsad qilib qo'yildi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar bevosita tilshunoslik sohasiga ham ijobiy ta'sirini o'tkazishi natijada yangidan yangi lingvistik tadqiqotlar yaratilib, bu boradagi bo'shliqlar to'ldirilmoqda. Dissertatsiya uchun tanlangan mavzu O'zbekiston Respublikasi uchun, ayniqsa, dolzarb: o'zbek olimlari orasida qiyosiy-tipologik tadqiqotlarga qiziqish avj olib borayotganiga qaramasdan, o'zbek va ingliz tillari yurtimizda, umuman, asimmetriya, xususan, grafik asimmetriyaga bag'ishlab yozilgan monografik xarakterda tadqiqotlar yo'q. Mazkur dissertatsiya ishi ushbu bo'shliqni to'ldirishga va shu jarayonda tegishli ilmiy-tadqiqot ishlarini jonlantirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion

g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" doirasidagi ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** G'arbiy Yevropa tilshunosligida maskur muammo ancha keng o'rganilgan. Shu nuqtayi nazardan D.Jil va Sh.Yashayaku; O.Fegkra, N.Ritt va K.Smit; M.Dekert; M.Joxanson, S.Selimis va A.Papafragou; K.Malmk'er va R.Kirk, S.Grinbaum, J.Lich, J.Svartviklarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ularda ingliz tili gap qurilishi tizimli tarzda tahlilga tortilgan. Shu tizimni aniq misollar yordamida namoyon etuvchi asimmetriya turlari o'rganilgan. Shuningdek, ushbu ishda taniqli g'arbiy yevropalik taniqli tarjimashunoslar, xususan, J.Elos, A.Chesterman, D.Glenn, J.Hedli ishlaridan ham keng istifoda etildi.

Rus tilshunosligida grafik asimmetriya bilan bog'liq muammolar ancha keng va chuqur tahlil qilingan. Bizning ushbu tadqiqot ishimizni yozishda G.Veyl, V.G.Gak, E.Benvenist, S.I.Kartsevskiy, A.G.Likov va N.A.Likova, M.M.Makovskiy, N.N.Ponomarenko, N.S.Pospelov, E.S.Xarina, N.V.Cheremisina-Enikolopova, D.V.Erdineeva va boshqalarning ishlari qimmatli nazariy-metodik ahamiyat kasb etdi. Mazkur tadqiqot ishlarida tilshunoslikda simmetrik (mutanosib) va asimmetrik munosabatlarning turli jihatlari ochib berilgan, asimmetriyaning turlari aniqlangan, har xil tizimli tillarda, xususan, rus, ingliz, nemis va fransuz tillarida lingvistik asimmetriyaning namoyon bo'lish holatlariga misollar keltirilgan.

O'zbekistonda lingvistik asimmetriya tahliliga bag'ishlangan ishlar ko'p emas. Bu ishlar orasida I.T.Boyoqulovning tadqiqotlari diqqatga sazavor. Uning ilmiy maqolalarida rus va o'zbek tillarida morfem va deratsion birliklar qiyoslab o'rganilgan. Ularda asosiy e'tibor so'z yasovchi vositalarning ifodalanishida shakl va mazmun asimmetriyasiga qaratilgan; N.Sh.Ahmedova qo'shma gaplarning mazmuniy qurilishi va qo'llanishida pleonazm (lisoniy ortiqchalik) hodisalari asimmetriyasining namoyon bo'lishini o'rgangan. N.F.Qosimovning ilmiy jamoatchilik e'tiboriga tushgan lisoniy belgi asimmetriyasi tadqiqiga bag'ishlangan maqolasi ham bizni qiziqtirayotgan mavzu nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada "what" so'zi yordamida hosil qilingan so'roq gaplar asimmetriyasi ingliz, o'zbek va rus tillari materialida tahlilga tortilgan. Ushbu mualliflarning boshqa bir maqolasida tizimli tillar misolida lisoniy belgi asimmetriyasi o'rganilgan.

Umuman olganda, O'zbekistonda grafik asimmetriya, xususan, o'zbek va ingliz materialida asosida grafik asimmetriya tadqiqiga bag'ishlangan ishlar yo'q. Shuning uchun ushbu dissertatsiya grafik asimmetriyaning o'zbek va ingliz tillarida namoyon bo'lishi qonun-qoidalarini o'rganishga bag'ishlandi.

**Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta'lim muassasa ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining "O'zbek tilshunosligi va adabiyot ta'limining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** grafik asimmetriyaning o'zbek va ingliz tillarida namoyon bo'lishini qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

lisoniy belgi asimmetriyasiga bag‘ishlab yozilgan ilmiy ishlarga munosabat bildirish;

lisoniy belgi nazariyasini chuqur o‘rganish;

“simmetriya / asimmetriya” dixotomiyasining tabiati va mohiyatini tavsiflash, asimmetriyaning turlarini aniqlash;

lisoniy belgi asimmetriyasi xususiyatlari va funksiyalarini o‘rganish;

ingliz tili materiali asosida grafik asimmetriyaning sintagmatik, paradigmatik va semantik aspektlarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash;

o‘zbek va ingliz tillari materiallari asosida grafik asimmetriyaning orfografik, bo‘g‘in va o‘rin (pozitsiya) tamoyillarini o‘rganish;

ingliz va o‘zbek tillari unli tovushlar tizimida asimmetrik holatlarni aniqlash;

o‘zbek tili unli fonemalari soni ilmiy va lingvodidaktik manbalarda qayd etib kelinayotgan sonda ko‘proq ekanligini nazariy va faktik materiallar bilan asoslash.

**Tadqiqotning obyektini** o‘zbek va ingliz tillarida lisoniy belgi asimmetriyasi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmeti** grafik asimmetriyaning ingliz va o‘zbek tillarida namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganishdir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-chog‘ishtirma, distributiv, transpozitsion, transformatsion, komponent, kontekstual-situativ va miqdoriy metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilar bilan belgilanadi:

“grafik asimmetriya” tushunchalar termini keng qamrovli polisemantik hodisa ekanligi, u faqat tovushni ifodalovchi hodisa emasligi, uni tilning boshqa sath birliklariga nisbatan qo‘llash lisoniy belgi asimmetriyasi xususiyatlari orqali asoslangan;

o‘zbek tilshunosligida birinchi marta grafik asimmetriyaning tarixiy ildizlari, genezisi, turlari hamda vazifalarini tahlil qilish orqali ularning genetik asoslari aniqlanib, bunday tahlillar qiyosiy tilshunoslik uchun muhim omil ekanligi dalillangan;

“grafik asimmetriya”ning sintagmatik, paradigmatik va semantik aspektlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari ingliz va o‘zbek tili materiallarida “simmetriya/asimmetriyasi” dixotomiyasining qiyoslanishi bilan isbotlangan;

ingliz va o‘zbek tillari unlilar tizimlariga xos asimmetrik holatlarning o‘rganilishi natijasida o‘zbek tili unli tovushlari soni rasmiy manbalarda qayd etilganidan ko‘proq ekanligi nazariy va faktik ma’lumotlar bilan dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

lingvistik belgi nazariyasi yangi nazariy va faktik materiallar tadqiqi natijalari asosida boyitildi;

“simmetriya / asimmetriya” dixotomiyasi birliklari orasida dialektik aloqaning mavjudligini asoslab berish, ularning dialektik xarakterda ekanligi haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi;

“grafik” tushunchalar termini ma’nosi yangi qirralarining kashf etilishi til barcha sathlari birliklarining belgili xarakterini har tomonlama chuqur o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi;

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** foydalanilgan tadqiqot usullari, fundamental ilmiy-nazariy tamoyillar, talablar doirasida tahlilga tortilgan faktik materiallar, sohaga doir tadqiqotlarning nazariy va amaliy tajribasi, shuningdek, olingan natijalarning dissertatsiya ishining mazmuniga muvofiqligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalari qardosh va noqardosh tillarni qiyosiy-tipologik o'rganish bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qilishi, o'zbek va ingliz tilshunosligini lisoniy belgining asimmetrik dualizmini o'rganish sohasida yanada takomillashtirishga yordam berishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida qo'lga kiritilgan natija va xulosalardan bakalavriyat, magistratura hamda doktoranturada tahsil olayotgan ilmiy taliblar uchun qiyosiy tipologiya, nazariy fonetika, grafika, orfografiya, grammatika, tahliliy o'qish bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma tayyorlashda, maxsus kurslarni o'qitishda, shuningdek, tadqiqot yo'nalishi doirasida ilmiy maqola va dissertatsiyalar yozishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek va ingliz tillarida grafik asimmetriyaning namoyon bo'lishi xususiyatlarini o'rganish asosida:

“grafik asimmetriya” tushunchalar termini keng qamrovli polisemantik hodisa ekanligi, u faqat tovushni ifodalovchi hodisa emasligi, uni tilning boshqa sath birliklariga nisbatan qo'llash lisoniy belgi asimmetriyasi hamda “grafik asimmetriya”ning sintagmatik, paradigmatic va semantik aspektlarda namoyon bo'lish xususiyatlari ingliz va o'zbek tili materiallarida “simmetriya/asimmetriyasi” dixotomiyasining qiyoslanishi bo'yicha olingan ilmiy natijalari, amaliy taklif va tavsiyalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” (CLASS: “Markaziy Osiyo universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo'yicha magistratura dasturini ishlab chiqish”) nomli innovatsion loyiha doirasida bevosita foydalangan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 11-martdagi 547/02-son ma'lumotnomasi). Natijada grafik asimmetriyani o'rganish bo'yicha qilingan ilmiy xulosalar takomillashtirilgan;

o'zbek tilshunosligida birinchi marta grafik asimmetriyaning tarixiy ildizlari, genezisi, turlari hamda vazifalari orqali ularning genetik asoslari aniqlanib, ular qiyosiy tilshunoslik uchun muhim omil ekanligiga oid tahlillaridan Buxoro davlat universitetida amalga oshirilayotgan O'zbekistondagi AQSH elchixonasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan S-UZ800-20-GR-0034-raqamli “ACCESS MICROSCHOLARSHIP PROGRAM” loyihasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 11-yanvardagi 06-01-0011-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz tilidagi frazeologizmlarda grafik asimmetriyaning semantik aspektida namoyon bo'lishi, ularning o'ziga xos xususiyatlarini batafsil tahlil qilish bo'yicha olingan natijalar takomillashtirilgan;

ingliz va o'zbek tillari unli tizimlariga xos asimmetrik holatlarning baholanishi natijasida o'zbek tili unli tovushlari soni rasmiy manbalarda qayd etilganidan ko'proq ekanligi nazariy va faktik ma'lumotlar natijalaridan Samarqand

telekanali orqali 2023-yil mart-aprel oylari davomida efirga uzatilgan “Ingliz tili saboqlari” ko‘rsatuvi ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiyo kompaniyasining 2024-yil 15-fevraldagi 01-07/44-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlar ingliz va o‘zbek tillarida harf va tovushlar, ularning o‘zaro munosabati, mutanosib va nomutanosib holatlari haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta (4 ta respublika hamda 1 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tilshunoslikda simmetriya va asimmetriya nazariyasi**” deb nomlangan birinchi bobi “Lisoniy belgi nazariyasi”, “Simmetriya va asimmetriya. Asimmetriyaning turlari” hamda “Lisoniy belgi asimmetriyasi” kabi bo‘limlardan tashkil topgan.

Belgilarni o‘rganish tarixi qadimgi yunon olimlari, xususan, Zenon, Xrisipp, vavilonlik Diogenlarga borib taqaladi. Vavilonlik Diogen birinchi bo‘lib belgi, ma’no va predmet o‘zaro munosabatini aks ettiruvchi, keyinchalik G.Frege tomonidan takomillashtirilgan, hozir keng iste’molda bo‘lgan semantik uchburchak ishlab chiqqan.

XVI-XVII asrlarda so‘z *predmet belgisi* sifatida talqin qilina boshlagan (T.Tobbs, J.Lenni, G.Leybnis, I.Kant va boshqalar). F.Humbolt esa so‘zni tushuncha belgisi sifatida ta’riflagan.

Rus tilshunosi F.F.Fortunatov tilshunoslik tarixida birinchi bo‘lib, tilda turli belgilar bo‘lishi mumkinligini asoslagan. Bular: a) moddiy ma’noli belgi – so‘z va b) formal ma’noli belgilar – affikslar. U *ton*, *intonatsiya*, *undov* va *imo-ishoralarni* ham belgilar tizimiga kiritdi.

G.Frege ning belgi haqidagi ta’limoti tabiiy til hodisalari nomlarini o‘rganish asnosida shakllangan. Mazkur ta’limotda belgi predmetning nomi sifatida talqin qilingan. G.Frige lisoniy belgini a) ma’no (nom ifodalaydigan predmet); b) nomning mazkur belgi tomonidan ifodalaydigan ma’nosi; v) predikativ yo‘l bilan

anglatilgan nom (masalan, *bu meva – olma, bu – o‘quvchi daftari* va b.); g) ifodalayotgan belgi haqidagi tasavvur sifatida talqin qilinadi.

A.A.Potebnyaning fikriga ko‘ra, belgi faqat predmetlar (obyektlar)nigina emas, balki ularning xossalari, sifatida va munosabatlarini ham ifodalashi mumkin. Bu haqida u shunday yozadi: “*A B* ni anglatadi. Masalan, uzoqda ko‘kka taralib turgan tutunni ko‘rsak, o‘sha yerda yong‘in chiqqan, degan xulosaga kelamiz. Boshqacha aytganda, biz *B* ning nima ekanini *A* yordamida bilib olamiz”.

Ch.S.Pirsning belgili munosabatlar va belgili jarayonlarni farqlagani e‘tiborga molik.

Belgili munosabatlar – bu bir planda mavjud birliklar orasidagi munosabatdir. Bu munosabatlar biz stoyiklarda ko‘rgan belgilar uchligining biroz takomillashtirilgan shakli. Belgili munosabatlar doirasida belgilarning uch asosiy turlari farqlanadi:

1) *A* va *B* orasidagi bevosita munosabatni ifodalovchi klassik (ikonik) belgilar. Bu belgilar: a) diagrammalar; b) tarh (chizma, tasvir);

2) Indeks-belgilar. Bunday belgilar unga obyekt bevosita ta‘sir qilganda yuzaga keladi. Chunki o‘zining yagona obyekt bilan bevosita aloqada bo‘ladi. Yo‘l harakati belgilari, barmoq va oyoq izlari, olmoshlar (bu, o‘sha), ravishlar (hozir, shu yerda), yuklamalar (-da) va boshqalari misol bo‘la oladi;

3) Simvol-belgilar. Belgilarning bu turi obyektning o‘xshashligiga bog‘liq bo‘lmagan holda ifodalaydi. Yuqoridagilarga asoslanib so‘zni ham, so‘z birikmasini ham, gapning barcha turlarini ham, matematik, geometrik belgilarni ham simvol belgilar sifatida tushunamiz.

*Belgili jarayon* belgi nazariyasi mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon uzluksiz davom etadigan hodisa hisoblanadi, chunki obyektning o‘zi belgi tabiatiga ega. Shunday bo‘lmaganda, belgi o‘zining asosiy vazifasini aloqa-aralashuv funksiyasini bajarolmagan bo‘lard.

Tilni boshqa belgili tizimlar (chunonchi, signal (xabar), shartli belgilar) bilan qiyoslash turli e‘tiroz va chiqishlarga sabab bo‘ldi. Bu holatga muayyan darajada aniqlik kiritish uchun dissertatsiyada belgilarni o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari o‘rganildi va natijada bular: a) sof lisoniy belgilar hamda b) shartli belgilar ekanligi aniqlandi. Shartli belgilar turli-tuman funksiyalarni bajarishi mumkin. Keyingi funksiyalar shartli ravishda ikki guruhga bo‘linadi: 1) sodda (birlamchi) va 2) murakkab (ikkilamchi) belgilar.

Belgi nazariyasi masalalari o‘tgan asrda F.do‘ Sossyur, V.A.Zveginsev, E.Benvenist, I.S.Narskiy, A.F.Losev, L.O.Reznikov, A.T.Volkov, T.Klaus, Y.K.Melvil kabi olimlar tomonidan jiddiy o‘rganilgan. Dissertatsiyada fransuz tilshunoslari do‘ Sossyur, E.Benvenist va rus tilshunosi V.N.Voloshinovlarning belgi haqida ayrim mulohazalariga munosabat bildirildi.

E.Benvenest F.do‘ Sossyurning dastlab belgi ixtiyoriydir, degan fikriga aniqlik kiritish uchun maxsus maqola yozadi. Unda do‘ Sossyurning mazkur tezisi butun dunyo bo‘ylab ommalashib ketgani, deyarli hamma belgi haqida gap ketganda, o‘z fikrini do‘ Sossyurning shu gapini keltirishdan boshlagani, ammo do‘ Sossyur ham, uning izdoshlari ham belgining ixtiyoriyligi haqida yozgandi. Belgida uchinchi unsur (ya‘ni, narsa, voqelilik) mavjudligiga e‘tibor berishmagan,

shuning uchun belgi ixtiyoriy degan xulosaga kelganlar, holbuki, belgi also ixtiyoriy emas, aksincha, juda zarur ekanligi haqida yozilgan<sup>1</sup>.

V.N.Voloshinov belgiga ta'rif berishda umumsemiotik holatlarga tayanadi va unga ideologik (ya'ni madaniy, axloqiy, ilmiy va b.) funksiyalar xosligini ta'kidlaydi.

Haqiqatan ham, do' Sossyur ustoz va zamondosh tilshunoslar ta'sirida avval lisoniy belgining ixtiyoriyligi haqida yozgan. Ammo mazkur ta'sirlardan qutila bergani sari belgi nisbatan ixtiyoriy degan xulosaga kelgan.

Dissertatsiyada belgilarning tur va xususiyatlari o'rganilgan: 1. *Belgilarning turlari*: a) piktografik belgilar; b) ko'rsatuvchi (yo'naltiruvchi) belgilar; d) ideo (logo)grammalar; 2. *Belgilarning xususiyatlari*: a) belgi moddiy xarakterga ega; b) belgining mavjudligi va amal qilishi uning moddiyligi bilan belgilanadi; d) belgining ma'nosi uning farqlovchi belgilariga bog'liq.

“Simmetriya” va “asimmetriya” terminlari dastlab regiylik Pifagor asarlarida qo'llangan. Simmetriya – ko'p qirrali va turli-tuman bo'lib, u batartiblik va mutanosiblik mavjud bo'lgan hamma joyda uchraydi. Ishda simmetriyaning quyidagi asosiy ko'rinishlari o'rganilgan: a) nuqtaga nisbatan olingan *markaziy simmetriya*; b) o'q bo'ylab to'g'ri chiziqqa nisbatan olingan simmetriya va v) tekislikka nisbatan olingan simmetriya. Belgi nazariyasida keying tur simmetriya to'liq (зеркальная) simmetriya. Anatomiyadagi o'ng va chap oyoq (qo'l, quloq, ko'z) to'liq simmetriyaga misoldir.

Kuzatishlar har qanday lisoniy dalil bir paytning o'zida ham simmetriya va ham asimmetriya xususiyatlarini namoyon etishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu simmetriya asimmetriyaning xususiy bir ko'rinishi ekanligidan dalolat beradi. Mazkur fikrni quyidagi leksik va sintaktik misollar bilan dalillash mumkin: “*juda ilgari*”, “*juda uzoq*”, “*давным-давно*”, “*далеко-далеко*”; “*sevish bo'lsa, sevish*”, “*savash bo'lsa, savash-da!*”; “*o'qitish bo'lsa, o'qitish-da!*”; “*walk – the walk*”. Bu gaplarda “*sevish*”, “*savash*”, “*o'qitish*” so'zlari kesim vazifasida kelgan. Simmetriya va asimmetriyaning bunday ko'rinishlarini anogrammalarda ham ko'rish mumkin. Qiyoslang: *aroq-qora, tus-sut, yo'q-qo'y; обезьянство – светобоязнь, древесница – сердцевина; сосна-насос, нон-сон, карп-парк; gentleman-elegantman; debit card-bad credit, eleven plus two – twelve plus one* va boshqalar<sup>2</sup>.

Asimmetriya muammolarini V.G.Gak, V.V.Ivanov, G.P.Melnikov, K.I.Stepanova va boshqalar o'rganganlar. Turli qarashlar sohiblari bo'lgan bu kabi olimlarni birlashtiradigan nuqta shundaki, olamning moddiy, lisoniy, milliy kabi manzaralarini aks ettiruvchi barcha birliklar “simmetriya / asimmetriya” qolipi asosida yasaladi va amal qiladi.

V.G.Gakning yozishicha, asimmetriya o'zaro bog'liq va o'zaro shartlangan ikki muhim fenomen (favqulodda hodisa)da aktuallashishi mumkin: a) markaz

<sup>1</sup> Qarang: Бенвенист Э. О природе знака // В.А.Звегенцов История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Часть I. – М., 1964. – С. 159-164.

<sup>2</sup> Черемисина-Ениколопова Н.В. Симметрия/асимметрия как глубинный универсальный бинарный лингвистический и общенаучный закон // Принципы и методы исследования в филологии: конец XX века. – СПб.; Ставрополь, 2001. – С. 28.

(yadro) va quyi (periferiya) farqlanganda hamda b) ifodalovchi va ifodalanmish bir-biriga to‘g‘ri kelmganda.

V.G.Gak grammatik asimmetriyani chuqur o‘rganish asnosida uning uch turini farqlash lozimligini uqtiradi: 1) tizim asimmetriyasi; 2) tuzilish (struktura) asimmetriyasi; 3) qo‘llanish asimmetriyasi. Muallif paradigmatic planda simmetriyaning buzilishi asimmetriyaning ikki turi – polisemiya va sinonimiyani keltirib chiqarishi mumkinligi haqida yozadi. Til ayrim sathlari birliklarining bir tekis rivojlanavermasligini V.G.Gak dinamik asimmetriya deb ataydi. Asimmetriyaning bu turi hech qayerda yetarli darajada o‘rganilmagan<sup>3</sup>.

Shuningdek, biz mazkur tadqiqot ishimizda asimmetriyaning asosiy funksiyalarini ham o‘rgandik. Bular: a) tashkillashtiruvchi; b) kengaytiruvchi va d) farqlovchi funksiyalaridir. O‘rganilayotgan lingvistik birlik asimmetriyasi sintagmatik, paradigmatic va semantik sathlarda tahlil qilindi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Grafik asimmetriya shakllari (ingliz tili materiali asosida)**” deb nomlangan. Mazkur bob “Grafik asimmetriyaning sintagmatik jihatdan namoyon bo‘lishi”, “Paradigmatic aspektida grafik asimmetriyaning namoyon bo‘lishi” va “Semantik jihatdan grafik asimmetriyaning namoyon bo‘lishi” nomli bo‘limlar asosida yoritilgan.

Ishda “Sintagma” termini fonetik, grammatik va semantik nuqtayi nazardan birika olish xususiyatlariga ega so‘zlar majmui sifatida ta‘riflangan bo‘lib, u til birliklarini tizimlashga, tasniflashga, joylashtirishga xizmat qiladi va sintagmatikada o‘rganiladi. Sintagma chegaralari faqat prosodik yo‘l (urg‘uli va urg‘usiz, uzun va qisqa bo‘ginlar tizimi) bilan belgilanadi. Shuning uchun u yaxlit semantik butunlikni tashkil etadi hamda bir ritmik guruh (nutqning nisbatan kichik birligi)dan hamda shu kabi bir necha guruhlardan ham tashkil topishi mumkin<sup>4</sup>.

Ilmiy manbalarda “sintagmatika” termini: 1) til hodisalarini o‘rganuvchi fanlardan biri; 2) nutq va matn (diskurs)ning sintagmatik plani tushunchasi ma‘nodoshi; 3) gorizontaal o‘q bo‘ylab joylashgan til birliklari orasida amal qiladigan sintagmatik tiplar haqidagi nazariya sifatida ta‘riflanadi<sup>5</sup>.

Sintagmatik munosabatlar bilan muammolar do‘ Sossyur, do‘ Kurtene, N.Krushevskiy va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, do‘ Kurtene sintagmatik munosabatlarni yonma-yon joylanadigan hodisalar, munosabatlar N.Krushevskiy esa o‘xshashlikka asoslangan munosabatlar sifatida ta‘riflagan.

Dissertatsiyada qat‘iy so‘z tartibi sintagmatik simmetriya mavjudligidan, so‘z tartibi o‘zgarsa, sintagmatik simmetriya sintagmatik asimmetriyaga aylanishi mumkinligi berilgan. Qat‘iy so‘z tartibi amal qilishining o‘z sabab va qonun-qoidalari bor. Masalan, “*Sons as well as their father*” gapida bevosita tashkil qiluvchilar (BTQ) o‘rni almashtirilsa, simantik aksent (urg‘u) o‘zgacha ma‘no kasb etadi, chunki keltirilgan gapda “*their father*” tarkibiy-mazmuniy asos vazifasini bajaradi. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishimizda BTQ metodiga to‘xtalindi va u teng, tobe hamda predikativ aloqa asosida yasalgan gaplar misolida tahlilga tortildi.

<sup>3</sup> Гак В.Г. Указ. статья. – С. 47.

<sup>4</sup> См.: Кубрякова Е.С. Синтагматика//Лингв. энциклопед. словарь. – М., 1990. – С. 447.

<sup>5</sup> См.: Кубрякова Е.С. Синтагматика//Лингв. энциклопед. словарь. – М., 1990. – С. 447.

O'zni kelganda shuni ta'kidlash joizki, rus tilshunosligi asosida shakllar sintaktik aloqalar nazariyasi, bu nazariyada teng va predikativ aloqalar o'zni masalasi hamon munozaraligicha qolmoqda. Holbuki, SamDUning marhum dotsenti bu muammoni bundan qariyb yarim asr oldin e'tiroz va qo'shimchalarga o'rin qoldirmaydigan darajada ishlab chiqqan edi<sup>6</sup>. "Ota keldi. Ota keldi?", "Ota keldi!" gaplari tugallanmagan predikatsiyaga misollar bo'lishi mumkin. "Ota keldi" gapi tashqi tuzilishiga ko'ra, otaning kelganini ifodalaydi. Biroq ichki tuzilishga ham ega: "Otaning kelgani rost". Shunga o'xshash misolni ingliz tilidan ham keltiramiz: "He is reading a book" va "He reads a book" gaplari leksik tarkibiga ko'ra bir xil, mazmunan har xil. Buning sababi shundaki, ikkinchi gap predikatsiya tufayli tugallangan gap maqomini kasb etgan<sup>7</sup>.

Semik aloqalar tahlil qilinganda, leksemalar o'zaro birikish me'yorlari aniqlaniladi. Bunda lug'aviy birliklarning bir biri bilan birikishi asosiy sintaktik fenomen hisoblanishi aniqlandi. Agar shu birliklar orasidagi aloqa turg'un bo'lsa, frazeologik birliklar deb ataluvchi leksik hodisa yuzaga keladi.

Ingliz tili doirasida amal qiladigan birliklar qoidaga binoan ma'lum so'z turkumlariga mos keladi va bu mazkur birliklarni semantik yaxlit holatga keltiradi. Natijada ularga biror so'z qo'shib ham, grammatik tarkibi yoki so'zlar tarkibini o'zgartirib ham bo'lmaydi. Qiyoslang: "a cat's nose", emas "a flea's nose"; "sitting on the phone" emas "hanging on the phone" va boshqalar.

Dissertatsiyada lisoniy belgi asimmetriyasi qanday aktuallashtirishi mumkinligi analitik deb ataluvchi fe'l birkmalari misolida ko'rsatib berildi. Mazkur birkmalarni bir-birida ajratib yoki ularni bir bo'lagini tushurib qoldirishning iloji yo'q. Shu bois ular birgalikda yaxlit lingvistik birlikni tashkil qiladi. Analitik fe'l birkmalari leksik-semantik nuqtayi nazaridan ikki uzvli bo'ladi va turli paradigmalar bo'ylab joylashadi. Bu holatga aniqlik kiritish uchun biz ular misolida paradigmatic asimmetriyani o'rganishga harakat qildik. Tahlil uchun eng ko'p qo'llaniladigan quyidagi analitik fe'l birkmalarini tanladik.

- 1) V+Adv (fe'l-ravish leksemalar: *make out, get down*);
- 2) V+V (fe'l-fe'l leksemalar: *get going, make understood*);
- 3) V+N (fe'l-ot leksemalar: *make a start, give a gasp*);
- 4) V+Adj (fe'l-sifat leksemalar : *make clear, go wild*)<sup>8</sup>.

I.A.Bitner "to make" va "to get" fe'llar bilan yasalgan analitik so'z birkmalarini o'rgangan va shunday xulosaga kelgan:

- 1) "to make" fe'lining subyekti real obyektini o'z ichiga olsa, "to get" fe'lining subyekti obyektini o'z doirasiga qamrab oladi;
- 2) "to make N" ko'p martalilik xususiyatiga ega belgilarni ifodalaydi. "To get" fe'lining subyekti bu yerda ham obyektini o'z doirasiga qamrab oladi;
- 3) "to make a start" subyektni makon va zamon munosabatiga olib kiradi. "to get + V" esa harakatning boshlanishi ma'nosini ifodalaydi<sup>9</sup>.

<sup>6</sup> Bu haqda to'liq ma'lumot olish uchun qarang! Mirzayev I.K. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Дисс. доктора филол. наук. – Тошент: Институт языкознания, 1992. – С. 260-263.

<sup>7</sup> См.: Курдюмов В.А. Предикация и природа коммуникации. – М., Автореф. дисс. докт. филологич. Наук. – М.: Волн. ун-т, 1999. – С. 28 (Ун-й Хашми – 39-б.)

<sup>8</sup> См.: Плоткин В.Я. Строй английского языка. – М.: Наука, 1989. – С. 41-42.

<sup>9</sup> Сонголова Ж.Г. Вторичные аналитические конструкции типа make a getaway в лексической подсистеме современного английского языка: Дис. канд. филол. наук. – Иркутск, 2001. – С. 94.

Paradigmatik asimmetriyani katta aniqlik bilan namoyon etuvchi yuqoridagi kabi misollarni turli qardosh va noqardosh tillardan ham keltirish mumkinligi asimmetriyaning boshqa turlari kabi uning mazkur turlarini ham tillararo universalialardan biri sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Paradigmatik asimmetriyaning analitik soʻz birikmalarda namoyon boʻlishini toʻliqroq koʻrsatib berish uchun yana manbalarga murojaat etildi. V.G.Gak analitik feʼl birikmalar funksiyalarini quyidagicha qayd etgan: 1) morfologik analitik qurilmalar. Ular morfologik kategoriyalarni ifodalovchi yaxlit soʻzshaklni yuzaga keltiradi: *vaqt* (“буду читать”), *tur* (ingl. “He is reading”), *nisbat* (“быть любимым”), *qiyos* (“фр. Plus grand”) va boshqalar; 2) sintaktik analitik birikmalar. Mazkur birliklar bir gap boʻlagini ajratib koʻrsatadi: a) kesim (“он начал петь” – “он запел”); b) aniqlovchi (“человек высокого роста” – “высокий человек”); v) hol (“переделать коренным образом” – “в конце переделать”); 3) leksik analitik birikmalar. Ular derivatsion maʼnolarni ifodalaydi: “маленький дом” – “домик”, “принимать участие” – “участвовать”.

Kuzatishlarimiz oʻzbek tilida feʼl analitik birikmalar, masalan, ingliz yoki rus tiliga nisbatan uncha rivojlanmaganini koʻrsatadi.

Biz grafik asimmetriyaning semantik sathda namoyon boʻlishi tartib-qoidalarini ham frazeologizmlar materiali asosida oʻrgandik, chunki ularda asimmetriya boshqa leksik birliklarga qaraganda ancha yorqin va toʻliq kuzatiladi. Ushbu masalaga doir maqolalar yozgan O.V.Podchixa lisoniy belgining asimmetrik dualizmi gʻoyasini frazeologik birikmalar materiali asosida oʻrgangunga qadar ham ushbu muammo mavjud boʻlgan va u turli olimlar tomonidan oʻrganilganini oʻrinli taʼkidlaydi<sup>10</sup>.

Lisoniy belgining asimmetrik dualizmi gʻoyasi shakllanib, semiotik olam manzarasini ifodalash usuli maqomiga ega boʻlgunga qadar lingvistik tafakkur evolyutsiyaning bilateral (ikki taraflama), yaʼni soʻzlarni narsa buyumning nomi sifatida idrok etish va uni mudom rivojlanishda, har xil munosabat turlariga moslashuvchan jonli, haqiqiy lisoniy belgi sifatida qaralishgacha boʻlgan yoʻlini bosib oʻtish kerak boʻladi<sup>11</sup>:

K.I.Stepanova germanistikada birinchilardan boʻlib asimmetriyaning frazeologik sathda aktuallashuvini “obrazlilik/obrazsizlik” tushunchalari asosida oʻrgangan. U oʻzining bu boradagi mulohazalarini shunday bayon qiladi: “Soʻz qoʻshilmalarining obrazsiz ekanligini bilish, odatda, obrazlilik va koʻchma frazeologik maʼnodan oldin keladi. Buning nega shundayligini bilish uchun frazeologik birlik oʻz va koʻchma maʼnolari aloqasini, yaʼni u yoki bu semantik munosabatga kirish/kirmasligini aniqlashga toʻgʻri keladi. Buning ustiga, frazeologik birikmalarning oʻz va koʻchma maʼnolari turli usullar yordamida ifodalanishi mumkin. Mazkur usullarning mavjudligi frazeologik qurilmalarning sinonimiya, omonimiya va polisemiya nuqtayi nazaridan asimmetriyaga moyilligi xususida gapirish imkonini beradi”<sup>12</sup>.

<sup>10</sup> Подчиха О.В. Интерпретация идеи асимметричного дуализма языкового знака в современной теории фразеологии // журнал “Молодой ученый”, Тош. I, №11 (29). – М., 2010. – С. 223.

<sup>11</sup> Qarang: Podachixa O.V. Koʻrsatilgan maqola. – B. 224.

<sup>12</sup> Степанова К.И. Асимметрия во фразеологии английского языка // kvnmukfu@mail.ru. – С. 59.

Yuqorida keltirilgan soʻzlardan obrazlilik asosini soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolariaro mavjud ziddiyat tashkil qilishi ayonlashadi. Obrazsizlik esa shu soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolarda qoʻllanishi natijasidir. Binobarin, obrazlilik bu ifodalovchi va ifodalanmish orasida namoyon boʻladigan aktualizatsiya natijasidir.

K.I.Stepanova ingliz tili frazeologik birliklarda “sevgi”, “nafrat” va “goʻzallik” konseptlarining namoyon boʻlish shakllari haqida eʼtiborga molik izlanishlar olib borgan. Muallif frazeologik birliklarning oʻrganishi yoki murakkablashishi lisoniy belgi asimmetriyasini mazkur leksik qatlamning tarkibiy-mazmuniy oʻzgarishi sifatida baholash maqsadga muvofiq ekanligini urgʻulab, frazeobirikmalarni quyidagi mazmuniy guruhga boʻladi:

1) *big heart* (rahmlilik) va *bad heart* (berahmlilik) turgʻun birikmalari tuzilishining biroz oʻzgarishi (morfemik, morfologik va morfo-sintaktik almashinishlar) kuzatiladigan frazeologik birliklar. Bunday frazeologik birliklarda asimmetriyaning salbiy baho tomonga oʻtishi kuzatiladi;

2) semantik tarkibning murakkablashishi bilan oʻzgarishi (biror boʻlakning almashinishi, ellipsis, inversiya, konversiya, transpozitsiya) bilan tavsiflanuvchi murakkablashgan frazeologik birliklar. Masalan, *recovered like flies* frazeologizmi “pashshalar oʻlyapti” maʼnosini emas, balki “pashshalar tirilyapti” maʼnosini ifodalaydi;

3) mazmun va tuzilishda kechadigan jiddiy oʻzgarishlar yaʼni maʼno, zid maʼno qoʻshimcha semantik maʼno nozikliklari taʼsirida yuzaga keladi frazeologik birliklar: Masalan, “*to stay dumbfounded*” qurilmasi “oʻlikday uxlamogʻ” maʼnosi oʻrniga “oʻlikday qotib turmogʻ” maʼnosini ifodalaydi;

4) oʻta murakkab birikmalar frazeologizmlar maʼnosining batamom barham topishi (kengayishi, qisqarishi, yangi maʼno hosil boʻlishi natijasi oʻlaroq paydo boʻladi. Masalan, “*sochlar tik turadi*” maʼnosini ifodalovchi “*the hair stand on end*” qurilmasi bunday transformatsiyalar sababli kuchli qoʻrqish tufayli yuzaga kelgan holatni anglatadi<sup>13</sup>.

Dissertatsiyada K.I.Stepanovanning jiddiy kuzatishlari oʻlaroq yozilgan yuqoridagi fikr-mulohazalari frazeologik birliklarda nutqning boshqa sathlariga nisbatan ham sintagmatik va paradigmatic asimmetriya koʻp, bunda tizimli namoyon boʻlishini dalillash uchun keltirildi.

Bizning tadqiqotimiz natijalari ham paradigmatic asimmetriya frazeologik birikmalarda, sintagmatik asimmetriya esa analitik birikmalarda koʻproq uchrashini koʻrsatadi.

**“Ingliz va oʻzbek tillarida grafik va orfografik tamoyillar asimmetriyasi”** deb nomlangan uchinchi bobda pozitsion, boʻgʻin va orfografik tamoyillar asimmetriyasi masalalari tahlil qilingan. Ushbu bob “Pozitsion va boʻgʻin prinsiplarining asimmetriyasi” hamda “Orfografik tamoyillarning asimmetriyasi” singari boʻlimlarni oʻz ichiga olgan.

Tilshunoslikda “grafik” (yun. *graphō* – yozaman, chizaman): a) harf (grafema)lardan tashkil topgan yozuvlar majmuyi; b) tilshunoslikning grafemi va tovushlarning oʻzro munosabatini oʻrganuvchi boʻlimi sifatida taʼriflanadi. Biror

<sup>13</sup> См. Степанова К.И. Указ. статья. – С. 64.

tilda ham ideal – bir grafema bir fonemani ifodalaydigan bekamu ko‘st (ideal) grafika yo‘q. Shuning uchun u “muayyan tovushlar tizimi va harflar tizimi orasidagi muvofiqlikni baholashda faqat tayanch nuqta bo‘lishi mumkin”.<sup>14</sup>

Hozirgi paytda dunyoda lotin, kirill va arab alifbolariga asoslangan yozuv tizimlari keng tarqalgan. Shuningdek, dunyoda harf va tovushlar o‘zaro mos tillar ham topilmaydi. Bu holat bir til doirasida va tillararo asimmetriya yuzaga kelishining birlamchi omili hisoblanadi.

Grafika deyarli mutlaq darajada pozitsion tamoyillar amal qiladi. Boshqacha aytganda, grafemalar harflarning valentligiga (sintagmatik o‘q bo‘ylab joylashishiga) ko‘ra istifoda etiladi.

Grafema (harf)lar va tovushlar o‘zaro munosabatining buzilishi, birinchidan, zamon va makon talabi, ikkinchidan, orfografiya an’anaviy (qat’iy) bo‘lsa, transformatsiyalar hisobiga buziladi. Bu holat ko‘proq ingliz tiliga hos. Unda 46 ta fonema 26 ta belgi yordamida ifodalandi. Mazkur tilda quyidagi murakkab grafemalar (harf birikmalaridan foydalaniladi):

- digraflar: sh, ch, th, wh, ck, ph, ng. Bular sirasida eng murakkabi “th” hisoblanadi, chunki u 2 ta jarangsiz [θ] va jarangli [Þ] tovushlarini hosil qiladi;

- trigraflar: tch (watch), igh (light);

- poligraflar: augh [ɔ]<sup>15</sup>.

O‘zbek tilida faqat digraflar amal qiladi. Bular *ng* (tong), *ch* (chol), *sh* (shop); *yo* (yorqin), *yu* (yulduz), *ye* (yemoq). Mazkur tilde trigraf va poligraflar kuzatilmaydi.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda bo‘g‘in va mora, ularning o‘zaro aloqasi masalasiga e’tibor ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, S.V.Androsova bu haqda shunday yozadi: “Unlilarning (qator holatlarda undoshlarning ham) fonologik cho‘ziqligi moralar soni bilan belgilanadigan bo‘g‘in vazni nazariyasi bilan uzviy bog‘langan. Makkolley morani cho‘ziq so‘zda ikkita, qisqa so‘zda bitta bo‘lgan qandaydir fonologik birlik sifatida ta’riflaydi. Hayman esa morani o‘ziga xos prosodik vazn (yuk) hisoblaydi, chunki *S – G* ga o‘tganda, birinchi unsur (*S*) o‘z vaznini yo‘qotadi, ikkinchi unsur (*G*) esa vazn oladi. Haymanning qoidasi prosodik litsenziyalash (prosodic licencing) tamoyiliga ko‘ra ishlab chiqilgan”<sup>16</sup>.


Turli olimlarning moraga doir fikrlarini keltirgani holda S.V.Androsova mazkur prosodik birlik (mora) haqida o‘z fikrini keltirmaydi. Bu holat bizni “mora”ni o‘rganish sohasidagi bu muhim bo‘shliqni to‘ldirishga undaydi.

Ilmiy manbalarda “mora” lotincha mora (to‘xtam, sekinlashish) termini asosida hosil qilingan, quyida keltilgan chizmada ko‘rsatilganidek qisqa unli tovushni me’yor darajasida davom etishi sifatida ta’riflanadi:

<sup>14</sup> Иванова В.Ф. Графика/Лингв. энциклопед. словарь. – М., 1990. – С. 118.

<sup>15</sup> См.: Иванова В.Ф. Указ. статья. – С 118.

<sup>16</sup> Андросова С.В. Указ. Статья. – С. 99.



Rus tilshunosi V.B.Kasevich morani qadimgi hind, qadimgi yunon, lotin va yana ko‘plab tillarga xos ritmik birlik sifatida talqin qilgan<sup>17</sup>.

Grafik asimetriyaga doir fundamental ishlardan biri prof. V.G.Gak qalamiga mansub. Unda fransuz va rus tillari fonetik tizmlarning umumiy va xususiy jihatlari katta nazariy hamda faktik material asosida ko‘rsatib berilgan. Mazkur asarda e‘tiborni tortgan joy unda grafik sath asimetriya so‘zlarning ritmik guruhlar doirasida qayta taqsimlanishi natijasida yuzaga kelishining dalillab berilganligidir<sup>18</sup>.

